



ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA AXBOROTNI BAHOLASH MEZONLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: PRIORITET MEZONINI JORIY ETISH

Turobov Doston Ismoilovich

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi kunduzgi ta'lim kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ichki ishlar organlarida axborotni baholash mezonlari tizimini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Amaldagi axborotni baholash mezonlari doirasida axborot oqimlarini boshqarishda prioritet mezonini joriy etishning zarurati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Axborot, Prioritet, Dolzarblik, O'z vaqtidalik, Ishochlilik, To'liqlik, Yangilik, Ichki ishlar organlari.

Abstract: This article analyzes the issues of improving the system of information evaluation criteria in Internal affairs bodies. The need to introduce priority criteria in managing information flows within the framework of the current information evaluation criteria is substantiated.

Keywords: Information, Priority, Relevance, Timeliness, Efficiency,

Completeness, News, Internal affairs bodies.

1. Ichki ishlar organlari oldida turgan vazifalar va funksiyalarning ko'payishi hamda murakkablashuvi, ularni boshqarish samaradorligiga talablarning oshishi va bu ishning brogan sari jadallashuvi huquqiy tartibning ahvoliga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilish eng dolzarb muammolardan biriga aylanib bormoqda. Shunday ekan axborot Ichki ishlar organlarida boshqaruv qarorlarini qabul qilish, tadbirlar tashkillashtirish, taklif va tavsiyalar tayyorlashda muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda. Bugungi kunda mavjud axborotni baholash, ularni saralash, tizimlashtirish zarur vazifaga aylanmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarida boshqaruv, nazorat va shaxsiy tarkib bilan ishlashning samarali tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-3919-sonli qarori qabul qilinib unda axborot-tahlil ishining asosiy tomonlari va algoritmlari belgilangan bir qator vazifalar belgilab berildi.

Ichki ishlar organlari axborot-tahlil faoliyatida mavjuda axborotni baholash muayyan talablar asosida amalga oshiriladi. Mazkur talablar axborot oqimlari o'tkaziladigan o'ziga xos filtr hisoblanadi. Ushbu talablar qatoridan quyidagilar o'rin egallagan:

Dolzarblik- axborotning Ichki ishlar organlarining ustuvor yo'nalishlariga to'g'ri kelishi. Dolzarblik o'z navbatida foydalilik, qiymatlilik kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

O'z vaqtidalik- axborotni izlash, olish va qaror qabul qilish jarayonida maksimal vaqt ko'rsatkichlariga mosligidir.

Ishonchlilik- axborotning ko'rilayotgan masala yuzasidan real holatga mosligi, aniq faktlarga asoslanganligi hamda ularning baholash, tahlil qilish, istiqbolni aniqlashdagi muvofiqligi.

To'liqlik- axborotning biror muammoni yetarli darajada keng yoritish, tahlil qilish uchun mazmun, mohiyat va faktologik jihatdan yetarliligi.



Yangilik- axborotning tadqiqot predmeti yuzasidan bilimlarni yangilab va oshirib borishdagi doimiy talablarga muvofiqligi.

Mazkur talablar asosida Ichki ishlar organlariga kelib tushgan axborotlar tahlil qilinadi va baholanadi, shuningdek qaror qabul qilish uchun taklif va tavsiyalar iashlab chiqiladi.

Axborot-tahlil faoliyatida axborotni baholash mezonlarini takomillashtirish yuzasidan Kanada Politsiyasining tajribasida keng qo'llaniladigan "Prioritet" mezonini qo'llash bu sohada samarali natijalarga olib kelishi mumkin.

Prioritet- "Ustuvorliklar", "Ahamiyatga molik masalalar", "Birinchi navbatdagi vazifalar" kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi.

Prioritet mezon- bu vazifa, hodisa va chaqiruvlarni muhimlik va shoshilinchlik darajasiga qarab tartiblash, resurslarni optimal taqsimlash va qaror qabul qilishni tizimli asosda amalga oshirish metodikasi.

Ushbu mezonning quyidagi afzalliklari mavjud:

- Qaror qabul qilish jarayoni tezlashadi;
- Mavjud kuch va vositalar optimal taqsimlanadi;
- Jamiyat va shaxs xavfsizligi oshadi;
- Vazifalarni nazorat qilish va tahlil qilish osonlashadi;
- Bir necha kelib tushgan axborotlarni tizimlashtirishga imkon yaratadi.

Prioritet mezon quyidagi talablar asosida baholanadi:

-Xavf obyekti

- Shaxs hayoti
- Shaxs sog'lig'i
- Mol-mulk

-Xavf holati:

- Faol
- Nofaol

-Xavf ko'lami:

- lokal (oilaviy yoki yakka tartibda bitta shaxsga qaratilgan tajovuz)
- mintaqaviy (ko'chalar, mahalla, ommaviy tadbirlar miqyosida)
- hududiy (tuman-shahar, viloyat miqyosida)

Yuqoridagi talablar asosida Prioritet mezon uch darajada (P3, P2, P1) ko'rinishida baholanadi.

P3-yuqori (masalan: bosqinchilik, o'g'ir tan jarohat yetkazish)

P2-o'rta (Talonchilik, firibgarlik)

P1-past daraja (o'g'rilik, atrof-tabiiy muhitni ifloslantirish) hisoblanadi.

Ichki Ishlar organlarida ushbu mezonni qo'llash uch darajada: xavf obyektlari va xavf holatiga qarab axborotlar, voqea va hodisalarni baholash orqali amalga oshiriladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Kanada tajribasida qo'llanilayotgan prioritet mezon huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini tizimli, aniq va natijador tashkil etishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv xavf darajasini baholash, resurslarni oqilona taqsimlash hamda tezkor qaror qabul qilish jarayonini takomillashtirish orqali jamoat xavfsizligini ta'minlash samaradorligini oshiradi. Ichki Ishlar Organlari faoliyatida mazkur



mezonni joriy etish xizmat yuklamasini optimallashtirish, inson omiliga bo'g'liq subyektivlikni kamaytirish va murojaatlarga adolatli ustuvorlik berish imkoniyatini yaratadi.

Eng muhimi, ustuvorliklarni aniq mezonlar asosida belgilash profilaktika va jinoyatchilikka qarshi kurashishda strategik yondashuvni kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarida boshqaruv, nazorat va shaxsiy tarkib bilan ishlashning samarali tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-3919-sonli 2018-yil 23-avgust

3. Ichki ishlar organlarida axborot-taxlil ishi: Darslik/A.A.Matchanov, Sh.Sh.Hasanov, va boshq. Ma'sul muharrir R.A.Hatamov-O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 2023.

4. <https://www.rcmp-grc.gc.ca>